

**AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIK MUAMMOSINING DOLZARB  
PSIXOLOGIK MASALALARI**

*Murotov Ortiqboy Tojiboyevich*

*Fargona viloyati Quva tumani 55- umumiy  
o'rta talim maktabining amaliyotchi psixologi*

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada axborot-psixologik xavfsizlik muammosining dolzarbligi, uning shaxs psixikasiga ta'siri hamda zamonaviy axborot oqimida o'quvchi va yoshlarni himoya qilishning psixologik jihatlari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** axborot, psixologik xavfsizlik, internet, ta'sir, shaxs, media, stress, himoya.

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье рассматривается актуальность проблемы информационно-психологической безопасности, её влияние на психику личности, а также психологические аспекты защиты учащихся и молодежи в условиях современного информационного потока.

**Ключевые слова:** информация, психологическая безопасность, интернет, воздействие, личность, медиа, стресс, защита.

**ANNOTATION**

This article examines the relevance of the issue of informational and psychological security, its impact on the human psyche, as well as psychological aspects of protecting students and youth in the modern information flow.

**Keywords:** information, psychological security, internet, impact, personality, media, stress, protection.

**KIRISH**

Hozirgi globallashuv davrida axborot oqimi juda tez va keng miqyosda tarqalmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari inson hayotining ajralmas qismiga aylangan. Shu bilan birga, bu axborotlarning barchasi ham ijobiy bo'lavermaydi, ayrimlari shaxs psixologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Axborot-psixologik xavfsizlik — bu shaxsning tashqi axborot ta'sirlaridan ruhiy jihatdan himoyalangan holati hisoblanadi. Agar inson noto'g'ri yoki zararli axborot ta'siriga tushsa, unda qo'rquv, stress, noto'g'ri qarashlar va xulqiy buzilishlar yuzaga kelishi mumkin.

Ayniqsa, o'quvchi va yoshlar axborot ta'siriga tez beriluvchan bo'lgani uchun ular xavf guruhiga kiradi. Internetdagi noto'g'ri ma'lumotlar, zararli kontentlar va salbiy g'oyalar ularning dunyoqarashiga ta'sir qilishi mumkin. Psixologik jihatdan

axborot oqimini to‘g‘ri qabul qilish ko‘nikmasi muhimdir. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, har bir ma‘lumotni tahlil qilish va ishonchli manbalarni ajratish zarur.

Oila va maktab hamkorligi bu jarayonda katta ahamiyatga ega. Ota-onalar farzandining internetdan foydalanishini nazorat qilishi, unga to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi lozim. O‘qituvchilar esa axborot madaniyatini shakllantirishga yordam berishi kerak. Ommaviy axborot vositalari bugungi kunda bolalar hayotining ajralmas qismiga aylangan. Televideniye, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali bolalar juda ko‘p ma‘lumot oladi. Ammo bu ma‘lumotlarning barchasi ham foydali emas, ba‘zilari bolalar psixikasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Bolalarda ommaviy axborot vositalarining xavfi bir necha yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, zararli kontentlar (zo‘ravonlik, qo‘rqinchli videolar, noto‘g‘ri g‘oyalar) bolaning ruhiy holatiga salbiy ta‘sir qiladi. Bu qo‘rquv, xavotir va agressiv xulqni kuchaytirishi mumkin. Ikkinchidan, ortiqcha ekran vaqti bolalarning diqqatini pasaytiradi, xotira va o‘qishga bo‘lgan qiziqishini kamaytiradi. Natijada ta‘lim jarayonida qiyinchiliklar yuzaga keladi. Uchinchidan, ijtimoiy tarmoqlardagi noto‘g‘ri axborotlar bolalarning dunyoqarashini buzishi va noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishiga olib kelishi mumkin. Psixologik jihatdan qaraganda, bolalar tez ta‘sirlanadigan va ishonuvchan bo‘ladi. Shu sababli ular ko‘rgan har bir ma‘lumotni to‘g‘ri va noto‘g‘ri deb ajrata olmaydi. Bu esa ularni axborot xavfiga moyil qiladi. Bu muammoning oldini olishda ota-onalarning roli juda muhimdir. Ular farzandining internetdan foydalanishini nazorat qilishi, unga vaqt cheklovi qo‘yishi va foydali kontentlarni tanlashga yordam berishi kerak.

Maktab va o‘qituvchilar esa bolalarda media savodxonlikni rivojlantirishi, axborotni tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishi lozim. Shuningdek, psixologik treninglar va targ‘ibot ishlari orqali o‘quvchilarda axborot xavfsizligi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar shakllantiriladi. Axborot tushunchasi bugungi kunda global ahamiyat kasb etmoqda. Chunki u tafakkurimizga turli yo‘nalishlarda ta‘sir o‘tkazuvchi, hayot va undagi minglab taqdirnlarni u yoki bu tomonga burib yuboruvchi, goh salbiy, goh ijobiy mohiyat kasb etuvchi qudratli qurolga aylandi. Umuman olganda, axborot – moddiy dunyoning organizmda yoki organizmlar jamoasida aks etgan hamda ular tomonidan atrof-muhit o‘zgarishlariga moslashish uchun foydalaniladigan moddiy dunyo obyektlarining aksidir. Qachonlardir ilohiy ma‘no kasb etgan so‘z, uning qudrati bugungi kunga kelib, dunyo taqdirini hal qilishda eng asosiy rol o‘ynaydigan kuchli vosita maqomiga ko‘tarildi. Fan-texnika inqilobidan keyin kommunikatsion texnologiyalar hamda axborot infratuzilmalarining katta tezlikdagi taraqqiyoti, xususan, internetning paydo bo‘lishi hamda uning qisqa vaqt ichida ijtimoiy hayot tarziga chuqur kirib borishi axborotni eng qimmat mahsulotga aylantirdi. Darhaqiqat, globallashuv va integratsiyalashuv sharoitida oltin, platina, javohirdan ko‘ra ko‘proq qiymatga ega bo‘lgan - axborot jahon bozoridan munosib joy oldi. Kim axborotga

egalik qilsa, u dunyoni boshqaradi, qabilidagi fikrlarni bot-bot esga olinayotgani ham bejizga emas. Bundan 4-5 asr oldin jahonda yetakchilik qilish uchun qo‘shin soni, qurol-yarog‘ arsenali, hatto dengizdagi kemalar, umuman, harbiy salohiyatning ahamiyati katta edi.

Aslini olganda, axborot tushunchasi dunyoqarashni ifodalovchi barcha bilimlar sohasida qadimdan mavjud bo‘lgan. Yalpi axborotlashtirilgan global tizimning dunyoga kelishi millatlar, xalqlar va butun insoniyat taqdirini bir-biriga chambarchas bog‘ladi. O‘z navbatida, axborot olish, uni ishlash, saqlash va tarqatish texnologiyasining tasavvur qilib bo‘lmaydigan darajadagi taraqqiyoti bugun jiddiy tashvish tug‘dirayotganini ham alohida ta‘kidlash joiz. Zero, eng so‘nggi avlod kompyuterlari har soniyada ikki milliardgacha vazifani bajara oladi. Axborot texnologiyasining ana shunday mo‘jizasi tufayli kishi yer yuzining xohlagan nuqtasidagi odam bilan soniyalar ichida aloqa o‘rnatishi, o‘zini qiziqtirgan savollarga bir zumda javob topishi mumkin. Ana shu holatning o‘zi inson faoliyatini, tafakkur tarzini, axloqiyu meyorlarini, olamga munosabatlarini, yaxlit olganda yangi yuz yillikdagi insoniyat hayoti va taqdirini ifoda etadi. Boshqacha qilib aytganda, XXI asr sivilizatsiyasi axborot huruji, axborot-psixologik urushi qiyofasida o‘zini namoyon etmoqda. Insoniyatning axborotga, uni olish, foydalanish va tarqatishga bo‘lgan yehtiyoji mislsiz sur‘atlarda ortib boryapti. Davlat boshqaruv tizimini yanada takomillshtirish, mamlakat iqtisodiyoti taroqlari va sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini, “yelektron hukumat” tizimi hamda axborot tizimlarini jadal tadbiiq yetish bugungi kunning asosiy talablaridan biridir.

Tahdid - xavfsizlikni muayyan ravishda buzishga qaratilgan harakat. U oshkora yoki yashirin bo‘lishi mumkin. XXI asrga kelib axborot hurujining psixologik huruj sifatida namoyon bo‘lishi kuchaymoqda. Shuni yodda tutish joizki, axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi bevosita inson va jamiyat, shaxs va uning dahlsizligi, tarixiy va madaniy meroslarni asrash bilan bog‘liq tushuncha hisoblanadi. Insonlar ongi va ruhiyatiga ta‘sir o‘tkazishning zamonaviy usullari axborot orqali amalga oshiriladi. Axborot orqali ta‘sir radio, televidenie, matbuot, internet kabi vositalar yordamida uzatilishi mumkin, bular orasida televidenie yeng ta‘sirchan vosita hisoblanadi. Internetning ta‘sirchanligi yesa, uning adadi cheksizligi, butun dunyo bo‘yicha tarqalgani, matbuot, radio va televideniya xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgani, o‘ta tezkorligi bilan izohlanadi.

Texnika va texnologiya mana shunday yuqori darajada rivojlangan globallashuv jarayonida axborot-psixologik xavfsizlikka tahdidlar qanday manbalardan keladi? Uning manbalarini qanday aniqlash mumkin? Hozirda ilmiy-o‘quv adabiyotlarida axborotpsixologik xavfsizlikka tahdidlarning va tahdid manbalarining tugal tasnifi mavjud yemas. Bu yesa muammoning yangiligi va murakkabligi bilan izohlanadi.

Shaxsga nisbatan axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashda tahdidni ikki guruhga - tashqi va ichki tahdidlar guruhlariga bo'lish mumkin.

Shaxs axborot-psixologik xavfsizligi tashqi tahdidlarining umumiy manbasi bu insonlarni chalg'itish, o'zini va yon atrofida qilishni aynan bir xilda qabul qilish imkonini bermaydigan axborotlardan iboratdir. Bu axborotlar ommaviy axborot vositalari (axborot tizimlari, masalan, internet va b.), adabiyot (badiiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiysiyosiy, maxsus va b.), san'at (ommaviy madaniyatning turli yo'nalishlari), ta'lim (maktabgacha, o'rta-maxsus, oliy ta'lim va b.), tarbiya (jamoat tashkilotlari (rasmiy, norasmiy va ta'lim tizimidagi tarbiyaning barcha shakllari) hamda shaxsiy muloqot orqali kelishi mumkin.

Tashqi manbalardan keluvchi axborotlarning hammasi ham insonlarni chalg'itishga, ularni adashtirishga qaratilmaydi. Ishonchli, oddiy, tushunarli axborotlar bilan bir qatorda yashirin ravishda shaxs axborot-psixologik xavfsizligiga tahdid qiluvchi ma'lumotlar ham kelishi mumkin, ularni ajrata bilish yesa shaxsning individual qobiliyatiga bog'liq. O'z individual-psixologik xususiyatlari va ruhiyat faoliyatining umumiy tasnifi va qonuniyatlarini bilish hozirgi vaqtda inson uchun nafaqat zarurat, balki ijtimoiy o'zaro aloqada, turli shaxslararo bo'ladigan vaziyatlarda xavfsizlikning yeng muhim sharti bo'lib qolayotir.

Har bir fuqaro o'z shaxsiy nuqtai nazari, qarashlari, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiyruhiy imkoniyatlari doirasidagina faoliyat ko'rsatadi. O'z olami hududida yashaydi va tashqi olamga o'z aqli doirasida munosabat bildiradi. Har bir individ mustaqil inson sifatida tabiiy-biologik kamolotidan va ruhiy ehtiyojidan kelib chiqib, o'ziga mos axborotni qabul qiladi, tahlil etadi. Mushohada va tahlillar asosida shaxsiy xulosasiga ega bo'ladi. Natijada mazkur shaxs u yoki bu tarzda nuqtai nazarini shakllantiradi. Demak, har qanday axborotning mazmuni, mohiyati, ta'sir etish darajasi, jamiyatga foydali yoki zararliligi, kishini ezgulikka yoki yovuzlikka da'vat etishi bilan shaxs, jamiyat, davlat mutanosibligiga ijobiy yoki salbiy ta'sir etadi. Ana shu jihatdan qaraganda, milliy manfaatlarni asrash va rivojlantirishda informatsion-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning roli yana ham oshadi. Atrofimizda fan va texnika taraqqiyoti va uni insonga bo'lgan ta'siri jamiyat va tabiatning tasiridan kuchli va ustun bo'lib bormoqda.

Insoniyat tomonidan to'plangan va yaratilgan axborot hajmi kengaymoqda va har o'n yillikda yanada kengayib borishi kuzatilmoqda, ammo inson miyasi va uni tashkil etadigan hujayralarning soni o'zgarmagan, qolaversa ta'limning davomiyligi ortib bormoqda va shuning o'zi informatsion stress ortishi xavfini tug'diradi. Miyaning o'z imkoniyatlari axborotni qabul qilishi keng, axborot hajmini ortishi xafli, ammo qisqa muddatda katta hajmdagi axborotni qayta ishlash zaruriyati paydo bo'lsa bu kuchli asab zo'rqishini olib keladi va infarmatsion stressni keltirib chiqaradi, ya'ni miyaga kirib turgan axborot hajmi va tezligi, bioiogik va ijtimoiy imkoniyatlarga

to'g'ri kelmasligi ham infarmatsion stress yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bu yerda axborot hajmi bir omil bo'lsa, ikkinchidan vaqt kamligi va unga shaxs motivatsiyasi ijtimoiy sabablar ham qo'shilsa miyani o'z o'zini himoyalash mexanizmi ishlamay qoladi, va inson o'zini informatsion stresslardan muxofaza qila olmay qoladi.

O'smirlar bunday holatda eng zaif tasirchan guruh sifatida namoyon boladi. Axborot-psixologik xavfsizlik, avvalo, bevosita inson ruhiyatiga ta'sir o'tkazish orqali uni o'z aqidalaridan, e'tiqodidan ayiradigan buzg'unchi g'oyalardan asrashdir. Bundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, informatsion-psixologik xavfsizligiga ehtiyoj, eng avvalo, bevosita inson va jamiyat, inson va davlat, shaxs va uning daxlsizligi, millat va milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, tarixiy va madaniy meros, avlodlarga ta'sir etuvchi buzg'unchi g'oyalar va tajovuzkor mafkuralarning mavjudligidan kelib chiqadi.

Qolaversa, axborot-psixologik xavfsizlikka rioya qilinmasa, uning ta'sirchan choralari ko'rilmasa, destruktiv g'oyalar milliy xavsizlikka putur yetkazishi mumkin. Tig'iz axborotlashgan jamiyatda axborot orqali zamonaviy ruhiy ta'sir texnologiyalarining tobora rivojlanib borayotgani shaxs va jamiyat tafakkurining shakllanishiga u yoki bu tarzda kuchli ta'sir o'tkazadi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, axborot-psixologik xavfsizlik bugungi kunda dolzarb muammo bo'lib, uni ta'minlashda psixologik yondashuv, tarbiya va hamkorlik muhim rol o'ynaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdiazimov O. Ommaviy axborot vositalari – fuqarolik jamiyatini barpo etish omili. –Toshkent: Akademiya, 2008 98 b.
2. Kenjaboyev A.T. Axborotlashtirish milliy tizimini shakllantirish muammolari. – Toshkent: Ibn-Sino, 2004. – 252 b.
3. Yoqubova M. Axborot texnologiyalarining falsafiy asoslari. /Uslubiy qo'llanma. Toshkent: Star – Poligraf. 2008
4. Ziyonet